


O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasida 2018/2019 o'quv yili boshida jami umumta'lim muassasalari soni 9774 tani tashkil etib, ulardan 6044 tasi (62%) qishloq joylarida, 3730 tasi (38%) shaharlarda joylashgan. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ta'lim muassasalari soni 0,6 foizga oshdi (56 ta).

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlik




Umumta'lim muassasalari soni – 9774, ulardan:




O'zbekiston Respublikasida umum ta'lim muassasalari uch turga bo'linadi: boshlang'ich, umumiy o'rta va boshqalar. 2018/2019 o'quv yili boshiga umum ta'lim muassasalarining umumiy sonidan 9648 tasi umumiy o'rta ta'lim maktablari, 37 tasi boshlang'ich maktablar va 89 tasi boshqa muassasalar. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami 5819,7 ming o'quvchi, boshlang'ich muassasalarida 6,6 ming o'quvchi va boshqa muassasalarda 21,0 ming o'quvchi ta'lim olmoqda.


Turlari boyicha umumta'lim muassasalari, birlik



Umumta'lim muassasalarida sinf guruhlari bo'yicha
o'quvchilar soni, *ming kishi*



Umumta'lim muassasalaridagi jami o'quvchilar soni
va 9-sinfni bitirganlarning hududlar kesimida taqsimlanishi, *ming kishi*




**Smenalar bo'yich
mashg'ulot olib boradigan
muassasalar ulushi, %**




2018/2019 o'quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarni hisobga olmagan holda) barcha ta'lim muassasalaridan, bir smenada ta'lim yuritiladiganlari 1960 ta (20,2%), ikki smenada 7694 ta (79,6%) uch smenada 19 ta (0,2%)ni tashkil etadi. Ta'kidlanganidek, bir smenada 3800,7 ming o'quvchi (65,2%), ikki smenada 2021,0 ming o'quvchi (34,7%), uch smenada 4,5 ming o'quvchi (0,1%) tahsil olmoqda.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi*



*Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz

Hududlar kesimida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida
o'qituvchilarning ulushi *, %




* o'rindoshlarsiz

2018/2019 o'quv yili boshiga jami o'qituvchilar soni 444,2 ming nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etib, ulardan 54 foizi qishloq maktablarida, 46 foizi esa shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbekistonda bitta o'qituvchiga o'rtacha 13 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.




O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi

2018/2019 o'quv yilining boshiga O'zbekiston Respublikasida 1537 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyat yuritmoqda. Ulardan akademik litseylar soni 123 tani va kasb-hunar kollejlari soni - 1414 tani tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: 2017/2018 yillar boshiga 1556 ta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari mavjud bo'lib, ulardan 123 tasi akademik litsey va 1433 tasini kasb-hunar kollejlari tashkil qilgan.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining 2016 / 2017-2018 / 2019 o'quv yillarida dinamikasi, birlik




2018/2019 o'quv yili boshiga o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarining umumiy sonidan akademik litseylar ulushi 8,0 % ni, kasb-hunar kollejlari esa 92,0 % ni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: akademik litseylarning ulushi 2016/2017 o'quv yili boshida 9,2%, kasb-hunar kollejlari esa 90,8% ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning soni, birlik


(2018/2019 o'quv yili boshiga)



O'zbekiston Respublikasida 2018/2019 o'quv yili boshiga 123 ta akademik litseylarda 70,8 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, 31,6 ming nafar o'quvchi ta'lim muassasalarini bitirdi. 2017/2018 o'quv yilining boshida esa 123 ta akademik litseylarda, 85,3 ming nafar o'quvchi tahsil olgan va 32,7 ming nafar o'quvchi bitirgan.



Akademik litseylar o'quvchilari va bitiruvchilar soni, ming kishi
(2018/2019 o'quv yili boshiga)




2018/2019 o'quv yili
boshiga




O'zbekiston Respublikasida 2018/2019 o'quv yili boshiga 1414 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritmoqda, ularda 656,3 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, 2018 yilda 454,9 ming nafar o'quvchi kasb-hunar kollejlarini bitirdi.

Hududlar kesimida kasb-hunar kollejlari soni, birlik
(2018/2019 o'quv yili boshiga)




Kasb-hunar kollejlari umumiy sonida eng katta ulush Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng kam ulush esa Navoiy, Sirdaryo, Jizzax va Buxoro viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va bitiruvchilari soni, ming kishi
(2018/2019 o'quv yili boshiga)



Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari orasida qizlarning ulushi 49,9%, o'g'il bolalar 50,1% ni tashkil etdi. 2018 yilda bitirgan o'quvchilarning 50,7% ni o'g'il bolalar, 49,3% ni qizlar tashkil etadi.


Kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan o'quvchilarning jinsi
bo'yicha taqsimlanishi,%
(2018/2019 o'quv yili boshiga)



2018/2019 o'quv yili boshiga kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari soni 44,0 ming kishini tashkil etdi, ulardan 41,0 ming nafari oliy ma'lumotli va 3,0 ming nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega.

Ma'lumot uchun: 2017/2018 o'quv yili boshiga kasb-hunar kollejlari 73,1 ming nafar o'qituvchi qayd etilgan bo'lib, ulardan 68,6 ming nafari oliy ma'lumotli va 4,4 ming nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan.


2018/2019 o'quv yilining boshiga




O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari

2018 yilning 1 noyabr holatiga O'zbekiston Respublikasida 78 ta oliy ta'lim muassasalari (oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari) va 20 ta filiallar faoliyat yuritmoqda.

2018/2019 o'quv yilida qabul qilingan talabalarning hududlar kesimida taqsimlanishi



Ta'lim sohalari bo'yicha bakalavr bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar, %




2018-yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 66594 nafarni tashkil etib, ularning 19105 nafari davlat grantlari asosida ta'lim olgan. 2018 yilda bakalavriyat bosqichini bitirganlarning 25566 nafari qizlar (38.4%) tashkil etadi.



Bakalavriat bosqichi bitiruvchilarining 43,8 foizi gumanitar soha, 10,7 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq sohasi, 28,0 foizi ishlab chiqarish va texnika sohasi, 7,4 foiz qishloq va suv xo'jaligi, 4,4 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi, 5,6 foizi xizmatlar sohasi bo'yicha bitirgan.

Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli


2018/2019 o'quv yili uchun magistraturaga qabul qilingan jami 5725 nafar talabalardan 27,2 foizi (1555 nafari) davlat granti asosida, 72,8 foizi (4170 nafari) to'lov shartnoma asosida qabul qilindi. Har 100 o'ringa o'rtacha 236 ta ariza topshirilgan.



Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talabalarning ta'lim sohalari bo'yicha taqsimlanishi

Magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar soni 11647 nafarni tashkil etib, ulardan 34,9 foizi gumanitar sohada, 19,8 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq sohasi bo'yicha, 21,7 foizi ishlab chiqarish va texnika sohasida, 4,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi sohasi bo'yicha, 16,0 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi bo'yicha, 2,7 foizi xizmatlar sohasida ta'lim olmoqda.


Oliy o'quv yurtlari magistraturada tahsil olayotgan talabalarning ta'lim sohalari bo'yicha soni, %



2018/2019 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida 360,2 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 159,4 ming nafarini qizlar tashkil etadi. Talabalarning 22,1 foizi davlat grantlari asosida, 77,9 foizi to'lov-shartnoma asosida tahsil olmoqda.

2018 yil 1 noyabr holatiga ko'ra oliy o'quv yurtlarida talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi, %



Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish
statistikasi boshqarmasi

(71) 230-80-71,
(71) 230-80-72